

Date: 17th June-2026

ZAMONAVIYLASHGAN DAVRDA YOSHLARNI HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH OMILLARI

Ismoilov Turg'un

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ta'lim tizimi, oila va ommaviy axborot vositalarining o'рни yuqori darajada yoritilgan. Globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan ya'ni zamonavishlashgan deya e'tirof etilgan bu davrda zararli xabar oqimlariga qarshi turishda yoshlarda "huquqiy immunitetni"ni shakllantirish zaruriyati ilmiy va amaliy nazariyalar asosida o'rganiladi. Shuningdek, yoshlar qatlamida qonunlarga hurmat va huquqiy mas'uliyat hissini kuchaytirishning asosiy jihatlari belgilab o'tilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy immunitet, qonun, huquqiy tarbiya, yoshlar siyosati, shaxs kamoloti, zamonaviy texnologiyalar, media-savodxonlik.

Abstract: This article extensively explores the roles of the educational system, family, and mass media in enhancing the legal culture of youth. In the modern era, characterized by globalization and the rapid advancement of digital technologies, the necessity of developing "legal immunity" among young people to counter harmful information flows is examined through scientific and practical theories. Furthermore, the study identifies key aspects of strengthening respect for the law and a sense of legal responsibility within the youth demographic.

Keywords: legal culture, legal immunity, law, legal education, youth policy, personal development, modern technologies, media literacy.

Аннотация: В данной статье подробно освещается роль системы образования, семьи и средств массовой информации в повышении правовой культуры молодежи. В условиях глобализации и стремительного развития цифровых технологий, определяющих современную эпоху, на основе научных и практических теорий исследуется необходимость формирования у молодежи «правового иммунитета» для противодействия вредным информационным потокам. Также определены основные аспекты укрепления уважения к закону и чувства правовой ответственности среди молодежи.

Ключевые слова: правовая культура, правовой иммунитет, закон, правовое воспитание, молодежная политика, развитие личности, современные технологии, медиаграмотность.

Yangi O'zbekistonni barpo etishning hozirgi boqichida inson huquqlari, erkinliklari va qonun ustuvorligini ta'minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, aholimizning kata qismini tashkil etuvchi yurtimizda, yosh avlodning huquqiy



Date: 17th June-2026

madaniyatini yuksaltirish, ularni davlat qonunlariga hurmat qilishini ta'minlash, Uchinchi Renessans poydevorini qurishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur sharoitda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish shunchaki ta'limiy vazifa emas, balki davlatning milliy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi eng asosiy jihat sanaladi. Umuman olganda, huquqiy bilimga ega, o'z huquq va majburiyatlarini chuqur anglay oladigan yoshlarda har qanday axborot va yangilik tazyiqlariga qarshi tizimlashgan "huquqiy immunitet"ga ega bo'ladilar. Ammo, raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan bugungi kunda, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va ularda qonunlarga hurmat hissini uyg'otish yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bu esa olib borilayotgan tadqiqotlarda yoshlarning huquqiy madaniyatiga to'siq bo'layotgan zamonaviy muammolar ko'rib chiqiladi hamda raqamli jamiyatda huquqiy tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatda oila, keyin esa maktab va ommaviy axborot vositalari hamkorligida turli xil shu mavzuga oid bo'lgan kreativ g'oyalar taklif etiladi. Huquqiy tartibot nafaqat qoidalarga bo'ysunishni, balki har bir insonning o'z huquqiy mas'uliyatini axloqiy ehtiyoj sifatida tan olishini talab etadi.¹⁵ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrida aynan huquqiy madaniyatni yanada modernizatsiyalash bo'yicha islohotlar o'tkazish, shu orqali jamiyatda huquq ustuvorligini ta'minlashga yo'l ochish kata maqsad va shart qilib qo'yiladi: "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish, eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tizimli va uzviy tashkil etish bilan bog'liqdir".¹⁶ Darhaqiqat, yoshlarda qonunga hurmat ruhini shakllantirishda oila va ta'lim muassasasi birinchi pog'onada turuvchi poydevor vazifasini o'taydi. Birinchi poydevor tiklangandan so'nggina boshqa tayanch poydevorlarini tiklash osonlashadi. Huquqiy tarbiya-bu shaxs ongiga huquqiy g'oyalar, normalar va unga oid bo'lgan tamoyillarni muntazam ravishda singdirish orqali unda qonuniy xulq-atvorni shakllantirish jarayonidir. Dunyo davlatlari har bir sohada raqobatlashgan bu sharoitda, yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi zararli xurujlarning ko'lami ortib borayotgan bir paytda yuqorida aytib o'tilgan "huquqiy immunitetni" shakllantirish, davlat va xalq zimmasida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Zamonaviy axborot makonida yoshlar nafaqat iste'molchi, balki axborotning tozaligi vazifasini ham bajarishi kerak, bu esa bevosita yuksak huquqiy savodxonlikni talab etadi. Ko'proq e'tibor qaratilayotgan jamiyat qatlamida huquqiy madaniyatni shakllantirish -bu ularning huquqiy ongi va xulq-atvori o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash demakdir.¹⁷ Ayniqsa muhim jihati ijtimoiylashgan internet tarmoqlarida kiberjinoyatchilik va firibgarlikning turli ko'rinishlari ko'payayotgan makonda, yoshlarning o'z shaxsiy va siyosiy huquqlarini virtual olamda ham himoya qila olishi muhimdir. Qolaversa, o'smirlar qatlamida huquqiy mas'uliyatni oshirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Shuningdek, yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik, adolat va qonunlarga hurmat tuyg'ularini uyg'otish ham

¹⁵ Xaydarali Odilqoriyev. "Davlat va huquq nazariyasi":T-Toshkent, "Adolat",2020-y. 5(1-j,B.424.)

¹⁶ Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi":T-Toshkent, "Adolat",2020-y. 1(1-j,B.252.)

¹⁷ Akmal Saidov. "Davlat va huquq nazariyasi":T-Toshkent, "TDYU nashriyoti",2021-y. 2(1-j,B.312.)

Date: 17th June-2026

yetakchi masala hisoblanadi.¹⁸ Bugun biz media-savodxonlik va axborot madaniyatning o‘zaro uyg‘unligi orqali yoshlarda ijtimoiy-siyosiy voqelikka nisbatan tanqidiy va xolis yondashuvni qaror toptirishimiz zarur. Bu esa yosh avlodning nafaqat qonunlarni bilishi, aytish joizki ularga hurmat-e’tiborda bo‘lib so‘zsiz itoat etishi hamda ijtimoiy adolatni ta’minlashda faol inson sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi. Aytib o‘tganimizdek navqiron avlod ayni paytda bir qator sun’iy intellektlar orqali o‘z ishlarini bajarishmoqda. Bilamizki sun’iy intellektga o‘z shaxsiga oid ma’lumotlar kiritiladi, shu kiritilgan shaxsiy ma’lumot orqali o‘zimizga zararli bo‘lgan bir qancha oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu jarayonning oldini olish uchun media-savodxonlik fanining o‘rni kata. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning huquqiy madaniyati - bu ularning o‘z taqdirlari va ijtimoiy muhitni o‘zgartira olish qobiliyatiga bo‘lgan ishonchidir. Huquqiy bilim bilan qurollangan yosh avlod global xatarlar qarshisida o‘zining ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan eng faol qatlam hisoblanadi.¹⁹ Xalqaro amaliyotlar va tajribalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, rivojlangan davlatlarda huquqiy madaniyat shaxsning ijtimoiy erkinligi va mas’uliyati o‘rtasidagi oltin muvozanat sifatida ko‘riladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, yoshlar o‘z huquqlarini talab qilish bilan birga, jamiyat oldidagi burchlarini ham chuqur anglashlari lozim. Shu ma’noda yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarda qonun ustuvorligi-hayotimizning bosh mezoni degan oliyjanob g‘oyaning qaror topishiga astoydil xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy tizimga bo‘lgan munosabati, ishonchi va qadriyatlar yig‘indisidir. Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish-bu ularda huquqiy tizimga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabatni uyg‘otish demakdir. Bugungi taraqqiyot asri ijtimoiy hayotning muhim mezoni sanalgan huquqning nufuzini, o‘sib kelayotgan avlod orasida yuksaltirishga, uni ma’naviy ne’mat va ijtimoiy demokratik qadriyat tarzida asrab-avaylashga chorlamoqda.²⁰ Davrning ushbu imperativ talabini, qat’iy undovini jamiyat huquqiy ongiga sindirish lozim. O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirishda jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolar hamda ularning asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlarda huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. Aholi orasida huquqiy madaniyat va huquqiy ongning o‘rni kattadir. Huquqiy ong orqali huquqiy madaniyat shakllanadi. Bu ikki katta ibora bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Mamlakatimizda har bir qatlam ayniqsa mavzuning asosi bo‘lib xizmat qilayotgan yosh avlodda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va yuksaltirish orqali yetakchi davlatlar qatorida yuqori saviyada o‘rin egallashimiz zarur. Chunki bu avlod ertangi kelajakning davomchisi hamda faoliyatchisi asosida ish yuritadi. O‘z huquqi va erkinliklarini to‘g‘ri anglay olgan yosh esa turli xil, jamiyat uchun zararli bo‘lgan jinoyatlarni qilishdan bosh tortadi. Shu ishlarni qilmaslikni lozim ko‘rgan shaxs boshqalarga ham ravo ko‘rmaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviylashgan davrda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish shunchaki huquqiy bilimlarni targ‘ib qilish emas, balki yosh avlod ongida

¹⁸ Zaynitdin Islomov. “Davlat va huquq nazariyasi”:T-Toshkent, “Adolat”,2020-y. 6(1-j,B.154.)

¹⁹ G‘affarova Gulsanam. “Raqamli jamiyatda yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirish”:T- Toshkent, “Akademiya”, 2023-y. 7(1-j, B.85.)

²⁰ Ronald Dvorkin. “Huquq saltanati”:T-Toshkent, “TDYU nashriyoti”,2022-y. 4(1- j,B.195.)

Date: 17th June-2026

qonun ustuvorligiga asoslangan barqaror tizimdagi dunyoqarashni tatbiq etish jarayonidir. Ularda “huquqiy immunitetni” hosil qilishda ta’lim tizimi, oila va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.²¹ Zero huquqiy madaniyati yuksak yoshlar, har qanday axborot xurujlariga qarshi tura oladigan, o‘z huquq va majburiyatlarini aniq anglay oladigan komil shaxs bo‘lib yetishadilar. Bu esa o‘z navbatida, “Uchinchi Renessans” poydevorini qurayotgan, Yangi O‘zbekiston nomi ostida tanilayotgan jamiyatda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonda media-savodxonlik va huquqiy bilimlar sintezi vatan kelajagi qatlamini, turli ma’naviy va huquqiy xatarlardan himoya qiluvchi eng ishonchli qalqondir. Binobarin, huquqiy madaniyatni yuksaltirish-dimiy yangilanib boruvchi va davr talablariga moslashishni talab etadigan uzluksiz jarayon bo‘lib qolaveradi. Virtual makonda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va turli ma’naviy oqimlarga qarshi ma’muriy choralar bilan emas, balki ularda kuchli huquqiy ong va yuqorida ta’rif berilgan media-savodxonlikni yuksaltirish orqali kurashish foydalidir. Shu bilan bilan birga shaxsning huquqiy tarbiyasi, oiladagi muhit va ota-onaning huquqiy xulq-atvorida andoza olish bilan boshlanadi. Shunday ekan, jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishni, oilalarda huquqiy savodxonlikni targ‘ib qilishdan boshlash lozim. Faqatgina barcha ijtimoiy institutlarning birlashgan oqilona harakati orqali biz yoshlarda qonunlarga hurmat va daxldorlik hissini yuksak darajaga ko‘tara olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”: T-Toshkent, “Adolat”, 2020-y. 1(1-j, B.252.)
2. Akmal Saidov. “Davlat va huquq nazariyasi”: T-Toshkent, “TDYU nashriyoti”, 2021-y. 2(1-j, B.312.)
3. Sherzod Zulfiqorov. “Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish mexanizmlari”: T-Toshkent, “Innovative Development”, 2022-y. 3(1-j, B.64.)
4. Xaydarali Odilqoriyev. “Davlat va huquq nazariyasi”: T-Toshkent, “Adolat”, 2020-y. 5(1-j, B.424.)
5. Ronald Dvorkin. “Huquq saltanati”: T-Toshkent, “TDYU nashriyoti”, 2022-y. 4(1-j, B.195.)
6. Zaynitdin Islomov. “Davlat va huquq nazariyasi”: T-Toshkent, “Adolat”, 2020-y. 6(1-j, B.154.)
7. G‘affarova Gulsanam. “Raqamli jamiyatda yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirish”: T-Toshkent, “Akademiya”, 2023-y. 7(1-j, B.85.)

²¹ Zaynitdin Islomov. “Davlat va huquq nazariyasi”: T-Toshkent, “Adolat”, 2020-y. 6(1 j, B.154.)